“TASDIQLAYMAN”
“UMS” MChJ Ma’muriy direktori
M.R. Kamalidinov
_____
(imzo)
2026-yil “21” 08

“UMS” MChJ Toshkent MO sanitariya uzellarini mukammal ta’mirlash bo‘yicha

TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent-2026

1. Umumiy ma'lumotlar

1.1. Bajarilayotgan ishlar (ko'rsatilayotgan xizmatlar) nomi

"UMS" MChJ Toshkent Markaziy ofisi sanitariya uzellarini mukammal ta'mirlash ishlari uchun.

1.2 Ishlar va xizmatlar ro'yxati

Qurilish-montaj ishlari loyiha-smeta hujjatlari, qurilish, ta'mirlash qoidalari va hisob-kitoblari, **QMQ, DAST, SanQvaM, ShNQ, EUTQ,** shuningdek, Buyurtmachi tomonidan taqdim etiladigan **boshqa hujjatlar**ga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

2. Ishlarni bajarish joyi (manzili):

Toshkent shahri, A. Temur shoh ko'chasi, 24

3. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar

3.1. Qurilish-montaj ishlarini bajarishga shunga o'xshash ishlarni (pardozlash ishlari va h.k.) amalga oshirish tajribasiga ega bo'lgan tashkilotlar qo'yiladi.
3.2. Pudratchi tijorat taklifini ShNQ talablariga mos keladigan mahalliy-resurs smetasi ko'rinishida taqdim etishi lozim.
3.3. Zarur inventar, asboblar, uskunalar va mexanizmlar bilan ta'minlangan malakali muhandis-texnik xodimlar hamda ishchilarning mavjud bo'lishi. Pudratchi muhandis-texnik xodimlar va ishchilarning haqiqatdagi mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotni, buyruqdan ko'chirma va www.mehnat.uz saytidan olingan mehnat daftarchasi nusxasini taqdim etishi shart.
3.4. Pudratchi qurilish ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan texnik vositalar, mashinalar va mexanizmlar (avtoag'dargich, avtomobil ko'tarma krani, qurilish materiallari uchun ko'targich va h.k.) ro'yxatini taqdim etishi kerak.
3.5. Shartnoma imzolangandan so'ng Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun mas'ul shaxsni tayinlashi, uning aloqa ma'lumotlarini Buyurtmachiga topshirishi va tayinlov to'g'risidagi buyruqdan ko'chirma taqdim etishi lozim.
3.6. Ishtirokchining O'zR Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi pudrat tashkilotlari reyting bahosi ro'yxatida mavjudligi. Pudratchi reyting bahosi mavjudligini tekshirish uchun O'zR Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi saytidan skrinshot taqdim etishi kerak.
3.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi PQ-279-sonli qarori asosida qurilish-pudrat tashkilotlarida qurilishning borishini ichki nazorat qilish uchun mas'ul mutaxassisning mavjudligi. Pudratchi bajarilayotgan ta'mirlash ishlari sifati nazorati uchun mas'ul shaxsning amaldagi sertifikati nusxasini, uning tayinlovi to'g'risidagi buyruqdan ko'chirmani va www.mehnat.uz saytidan olingan mehnat daftarchasi nusxasini taqdim etishi shart.
3.8. Binolar va ofislarni mukammal ta'mirlash bo'yicha avval bajarilgan ishlar yuzasidan oldingi Buyurtmachilardan olingan ijobiy tavsiyanomalarning mavjudligi. Pudratchi so'nggi 3 yil ichida binolar va ofislarni mukammal ta'mirlash bo'yicha bajargan ishlari yuzasidan oldingi buyurtmachilardan olingan ijobiy tavsiyanomalarni taqdim etishi kerak.
3.9. Pudrat tashkiloti sifatida tanlanadigan Ijrochi "Texnik baholash mezonlari"ga muvofiq talablarga javob berishi shart.

4. Ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) muddatlari
90 ish kuni

5. Ta'mirlash-qurilish ishlariga qo'yiladigan texnik talablar:

5.1. Qurilish ishlarida foydalaniladigan barcha materiallar yangi bo'lishi kerak. Ishlatilgan (b/u) materiallardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.
5.2. Materiallar va uskunalarning sifati ishlab chiqaruvchi zavodlarning tegishli sertifikatlari va/yoki pasportlari bilan tasdiqlanishi lozim.
5.3 Foydalaniladigan materiallarning (pol uchun 600x1200 mm o'lchamli keramik granit plitasi, devor uchun 600x1200 mm o'lchamli keramik granit plitasi, dekorativ osma shift, MDF qoplama panellari, taktil plitalar va h.k.) markasi, qalinligi va boshqa xususiyatlari 1-ilovaga muvofiq bo'lishi hamda 2 ish kuni ichida Buyurtmachi bilan oldindan kelishib olinishi shart.
5.4. Mavjud materiallar, buyumlar va boshqalarning barcha demontaj ishlarini keyinchalik foydalanish imkoniyati bilan bajarish lozim.
5.5 Texnik topshiriqning 2-ilovasi bo'lgan ishlar bajarishning batafsil kalendar reja-jadvalini ShNQ 3.01.01-22 ga muvofiq, qurilish chiqindilarini olib chiqishni ko'rsatgan holda taqdim etish va ta'mirlash-qurilish ishlarini bajarishda unga qat'iy rioya qilish lozim, aks holda Shartnomani bir tomonlama bekor qilishgacha bo'lgan jarima choralari qo'llaniladi.
5.6. Qurilish materiallari va qurilish chiqindilarini ruxsatsiz tushirish va ko'tarish qat'iyan man etiladi. Ushbu ishlarni bajarish uchun avtomobil krani va/yoki boshqa ko'tarish mexanizmidan foydalanilishi kerak.
5.7. Har kuni hududni tozalash, chiqindilarni yig'ish va olib chiqib ketish. Ta'mirlash ishlari tugagandan so'ng, hududni yakuniy tozalash ishlari amalga oshirilishi, tutash hududlardan chiqindilar, asboblar va materiallar olib tashlanishi lozim. Pudratchi qurilish chiqindilarini yuklash va olib chiqib ketishni ta'minlashi shart. Smeta hujjatlari va/yoki Ishchi loyihadan, boshqa hujjatlardan har qanday chetga chiqish Buyurtmachi bilan oldindan kelishilishi zarur.

6. Topshirish va qabul qilish qoidalari bo'yicha talablar

6.1. Ishlarni bajarish jarayonida va ular yakunlangach, Pudratchi tomonidan barcha zarur ijro hujjatlari rasmiylashtirilishi va Buyurtmachiga taqdim etilishi lozim.
6.2. Bajarilgan ishlar hajmini Buyurtmachiga faqat kelishilgan ro'yxat bo'yicha hujjatlarning to'liq to'plami taqdim etilgandan so'ng topshirish mumkin:

Buyurtmachiga topshiriladigan hujjatlar ro'yxati

№	Hujjatning nomi	zarurligi haqida belgi	izoh
1	Smeta hujjatlariga chetga chiqishlar va o'zgartirishlarni buyurtmachi bilan yozma ravishda kelishish	Shart	mavjud bo'lgan taqdirda
2	ShNQga muvofiq yashirin ishlarni tekshirish dalolatnomalari	Shart	
3	Foydalanilgan materiallar va uskunalar uchun sifat sertifikatlari va pasportlari	Shart	

6.3. Buyurtmachi bajarilgan ishlarning sifatini tekshirishga, shu jumladan mustaqil mutaxassislarni (ekspertlarni) jalb qilgan holda, sifatsiz bajarilgan ishlar faktini aniqlashga haqli.
6.4. Obyekt oraliq qabul qilishga taqdim etilganda va yashirin ishlar ko'rikdan o'tkazilayotganda Buyurtmachini xabardor qilish hamda uning obyektda hozir bo'lishi majburiydir.
6.5. Pudratchi ko'rikka tayyorligi to'g'risida Buyurtmachini qabul qilish kunidan kamida 5 ish kuni oldin xabardor qilishi shart.
6.6. Qurilishda qo'llaniladigan barcha materiallarning qiymati Shartnomaning butun amal qilish davri uchun qat'iy belgilangan hisoblanadi. Buyurtmachi bilan kelishilmagan va (yoki) loyiha ko'rsatkichlariga mos kelmaydigan qurilish materiallari qo'llanilgan taqdirda, Buyurtmachi bu ishlarni qabul qilmaslik huquqiga ega.

6.7. Shartnoma bo'yicha qurilish-montaj ishlarini bajarish jarayonida yuzaga keladigan har qanday qo'shimcha ishlar Buyurtmachi bilan oldindan yozma ravishda kelishilishi va nuqson dalolatnomasi bilan rasmiylashtirilishi kerak.

6.8. Summaning 15 foizi shartnoma imzolangan sanadan boshlab 10 bank kuni ichida Pudratchining hisob raqamiga oldindan o'tkaziladi, qolgan 85 foizi esa faqat shartnoma ilovasida ko'rsatilgan barcha ishlar majmuasi bajarilgandan so'ng, bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi va hisobvaraq-faktura imzolangan sanadan boshlab 10 bank kuni ichida, to'langan avansni chegirib tashlagan holda amalga oshiriladi. Bajarilgan ishlar hajmlarini oraliq (qisman) qabul qilishga bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi va unga hisobvaraq-faktura imzolanganligi fakti bo'yicha, biroq hisobot davrining 25-kunidan kechiktirmay ruxsat etiladi.

7. Kafolatlarni taqdim etish muddatiga qo'yiladigan talablar

Pardozlash ishlari uchun kamida 12 oylik kafolat.

Ishlab chiqilgan:

MD BEQKMB TNG yetakchi mutaxassisi _____ A.V. Bejensev

MD BEQKMB TNG rahbari _____ Ye.R.Abdiganiyev

BEQKMB TNG katta mutaxassisi _____ N.N. Polatov

Kelishilgan:

MD BEQKMB boshlig'i _____ R.B. Sidikov

2-ilova

"UMS" MCHJ ma'muriy binosining hojatxona qismini kapital ta'mirlash" ishlarini amalga oshirish kalendar jadvali namunasi

№ п/п	Наименование работ	Ед. изм.	объём	Начало работ	Окончание работ	Продолжительность, дн.	Ответствен	Примечание
8 этаж Административного здания								
1	Подготовительные работы	Комп.	1	02.09.26г	03.09.26г	2дн	Прораб Ф.И.О.	
2	Демонтажные работы	м3	100	03.09.26г	04.09.26г	2дн	Прораб Ф.И.О.	
3	Устройства гипсокартонных перегородок	100 м2	100	07.09.26	15.09.26	8дн	Мастер Ф.И.О.	
7 этаж Административного здания								
1	Демонтажные работы	м3	100	07.09.26г	08.09.26г	2дн	Прораб Ф.И.О.	
2	Устройства гипсокартонных перегородок	100 м2	100	09.09.26	17.09.26	8дн	Мастер Ф.И.О.	
	Итого:					**22дн**		
____этаж Административного здания								
1								
2								
3								
____этаж Административного здания								
1								
2								
3								

- **TAFSILOTLI (Batafsil)** reja-jadval deganda, shartnoma majburiyatlarini bajarish muddatlari batafsil ko'rsatilgan holda barcha turdagi ishlarni ko'rsatish nazarda tutiladi.
- **SODDALASHTIRILGAN** reja-jadval loyiha-smeta hujjatlarining barcha yoki alohida bo'limlarini shartnoma majburiyatlarini bajarish muddatlari umumlashtirilgan holda aks ettiradi.